

Sam.DVMCHB universiteti, Zootinjeneriya fakulteti, “Xususiy zootexniya” kafedrası dotsenti v.b., q.x.f.f.d. (PhD) O.A.Maxmadiyarovning 5410600 – Zootinjeneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi, 3 – bosqich 301-guruh talabalari uchun “Asalarichilik” fanidan “Asalari mahsulotlari va ularning shifobaxshlik xususiyatlari” mavzusida tayyorlangan amaliy mashg‘uloti ishlanmasiga

T A Q R I Z

“Xususiy zootexniya” kafedrası dotsenti v.b., O.A.Maxmadiyarov tomonidan 5410600 – Zootinjeneriya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi, 3 – bosqich 301-guruh talabalari uchun “Asalarichilik” fanidan “Asalari mahsulotlari va ularning shifobaxshlik xususiyatlari” mavzusiga tayyorlangan amaliy mashg‘uloti ishlanmasi tuzilishiga ko‘ra titul varag‘i, o‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi, o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi, B.B.B. texnikasi jadvali, tayanch iboralar, ma’ruza matni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati kabi tarkibiy qismlardan tuzilgan. Bu ishlanmada asosiy maqsad asalari olasidan olinadigan mahsulotlar bilan tanishtirishi, asalari mahsulot shifobaxshlik xususiyatlarini, asal xillari va ularning tarkibini o‘rganish bo‘lib, bunda asalarichilik sohasidan olinadigan mahsulotlar (asal, mum, propolis, o‘simlik changchisi, perga, asalari suti, asalari zahari), asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish va olish usullari, asalarichilik mahsulotlarini tovar xususiyatlari, asalarichilik mahsulotlarining klassifikatsiyasi, kimyoviy va fizikaviy tarkibi, asalarichilik mahsulotlariga qo‘yiladigan standart talablar, asalarichilik mahsulotlarining veterinariya-sanitariya ekspertizasi, asalarichilik mahsulotlarini saqlash va sifatini aniqlash, asalarichilik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash texnologiyasi haqida batafsil malumotlar kabi o‘quv elementlari keltirilgan. Bu o‘quv elementlari talabalarga amaliy mashg‘ulot, BBxB, blits – so‘rov, bayon qilish, klaster, “xa-yo‘q” singari o‘qitish uslubi va texnikasidan foydalanish ko‘zlangan.

Muallif o‘quv mashg‘uloti texnologik xaritasining kirish qismida mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutiladigan natijalar ma’lum qilishini; asosiy qismda bo‘lsa talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol - javob o‘tkazilishi; va boshqa ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratilishi keltirilgan. Yakuniy qismda talabalar e’tiborini asosiy masala ko‘rsatkichlarini anglab olishlari va faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantirish ko‘zlangan.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, amaliy mashg‘uloti ishlanmasi uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan. U o‘zining mazmun va mohiyati, qo‘yilgan masalalarning yoritilishi bilan dars mavzusiga mos keladi. Mazkur ishlanmani dars jarayonida foydalanishni tavsiya etaman.

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti direktori, q.x.f.f.d., professor.

E.S.Shaptakov

Sam.DVMCHB universiteti, Zootexnika fakulteti, “Xususiy zootexnika” kafedrasida dotsenti v.b., q.x.f.f.d. (PhD) O.A.Maxmadiyarovning 5410600 – Zootexnika (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi, 3 – bosqich 301-guruh talabalari uchun “Asalarichilik” fanidan “Asalari mahsulotlari va ularning shifobaxshlik xususiyatlari” mavzusida tayyorlangan amaliy mashg‘uloti ishlanmasiga

T A Q R I Z

Muallif tomonidan 5410600 – Zootexnika (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi, 3 – bosqich 301-guruh talabalari uchun “Asalarichilik” fanidan “Asalari mahsulotlari va ularning shifobaxshlik xususiyatlari” mavzusiga tayyorlangan amaliy mashg‘uloti ishlanmasi talabalarda asalarichilik sohasidan olinadigan mahsulotlar (asal, mum, propolis, o‘simlik changchisi, perga, asalari suti, asalari zahari), asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish va olish usullari, asalarichilik mahsulotlarini tovar xususiyatlari, asalarichilik mahsulotlarining klassifikatsiyasi, kimyoviy va fizikaviy tarkibi, asalarichilik mahsulotlariga qo‘yiladigan standart talablar, to‘g‘risidagi bilim va tasavvurni shakllantirish ko‘zlangan. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun amaliy mashg‘ulot ishlanmasida: Talabalar asalari olasidan olinadigan mahsulotlar bilan tanishtirishi, asalari mahsulot shifobaxshlik xususiyatlarini, asal xillari va ularning tarkibini o‘rganish kabi o‘quv elementlari pedagogik vazifalar orqali yoritish berish belgilangan.

“Asalari mahsulotlari va ularning shifobaxshlik xususiyatlari” mavzusiga tayyorlangan amaliy mashg‘ulot ishlanmasi o‘z tuzilishiga ko‘ra titul varag‘i, o‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi, o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi, B.B.B. texnikasi jadvali, tayanch iboralar, amaliy mashg‘ulot matni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati kabi tarkibiy qismlardan tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, amaliy mashg‘ulot ishlanmasi uslubiy jihatdan to‘g‘ri tayyorlangan. U o‘zining mazmun va mohiyati, qo‘llaniladigan o‘qitish uslubi va texnikasi, o‘qitish vositalari, o‘qitish shakli, o‘qitish shart-sharoiti amaliy mashg‘uloti mavzuni ochib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda tayyorlangan ishlanmani dars jarayonida foydalanishni tavsiya etaman.

**“Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi
va zoogigiyena” kafedrasida mudiri,
q.x.f.f.d (PhD) dotsent**

B.X.Djambilov